

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan tizim oldiga  
belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023- yilning 4- choragida amalga  
oshirilgan ishlar**

Navbatdagi kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i v.v.b. Sh. Sharipov kirish so‘zi bilan ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

2023-yilning IV-choragida statistika ishlari Davlat dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan ishlari hamda umumiylahliliy ma’lumotlar bilan tanishtirib o‘tdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 323,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. YAHMning o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi.

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 19 000,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,4 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiylahliliy hajmi 27 577,1 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 26 830,1 mlrd. so‘mni (104,1 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 1,6 mlrd. so‘mni (101,4 %), o‘rmon xo‘jaligida 428,3 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligida 317,1 mlrd. so‘mni (100,9 %) tashkil qildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 16 612,8 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 1 415,4 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 148,8 foizni tashkil qildi.

3917,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil qildi.

Avtomobil transportida 36,8 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,6 foizni tashkil etdi. Yuk aylanmasi 1 130,8 mln.tn-km bo‘lib 103,0 foizni tashkil etdi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transporti yuk aylanmasi 2022-yil yanvar-dekabriga nisbatan 102,9 foiz va 644,8 mln. tn-km ni tashkil qildi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik korxona va mikrofirmalarning yuk tashish bo‘yicha ulushi 41,0 foizni tashkil etgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi 9 484,6 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 424,2 mlrd. so‘mni va umumiylahliliy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 4,5 foizini tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 107,5 foizni tashkil etib, 2 376,5 mlrd. so‘mga yetdi, umumiylahliliy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 25,1 foizni tashkil qildi.

Umumiylahliliy tovar aylanmasi hajmida 6 683,9 mlrd. so‘msavdo faoliyati bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarhisobiga to‘g‘ri keldi va o‘sish sur’ati 2022-yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 70,4 foizga teng bo‘ldi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1 427,0 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 173,3 mln. AQSH dollarini, import 1 253,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasining saldosi -1 080,4 mln. AQSH dollarini (salbiy), shu jumladan MDH davlatlari bilan 28,3 mln. AQSH dollarini (ijobiyl) va boshqa davlatlar bilan

-1 108,7 mln. AQSH dollarini (salbiy) tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 40,3 foiz ulush bilan 575,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod tumani 0,1 foiz ulush bilan 1,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami yuridik shaxslar soni 48 712 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 27 701 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 56,9 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (49,1 %), savdo (17,1 %), sanoat (9,7 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 555 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 19 923 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 65,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,9 %) sanoat (15,5 %) va qurilish (8,2 %) sohalariga to'g'ri keldi.

2023-yilning 12 oyligi yakunida Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan statistika ishlarining to'liq hajmda bajarilishi ta'minlandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun zarur ma'lumotlar shakllantirildi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlanishi holatini tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar har oyda va chorakda mahalliy hokimiyatga taqdim etib borildi.

Boshqarma saytidagi "Ochiq ma'lumotlar" bo'limida xizmatlar sohasi jadvallarida 2023- yil uchun dastlabki ma'lumotlar e'lon qilinmaganligi, korxona va tashkilotlar registri jadvalidagi ma'lumotlar 2024-yil 1-yanvar holatiga yangilanmaganligi, shuningdek Paxtakor tumani statistika bo'limi tomonidan 2023-yil yanvar-noyabr davri uchun shakllantirilgan moliya sohasi, Do'stlik, Zomin, Zafarobod, Yangiobod tumanlari va Jizzax shahri statistika bo'limi tomonidan 2023-yil yanvar-dekabr davri uchun shakllantirilgan qishloq xo'jaligi sohasi planshet ko'rsatkichlarida davrlar xatolik bilan ko'rsatilganligi tanqid qilindi.

Shu bilan birga, Jizzax viloyat teleradiokompaniyasi bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilgan. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida "Jizzax.uz" va "Sangzor.uz" va barcha tuman hokimliklarining mahalliy saytlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon va qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan keng ko'lamli profilaktika maqolalari hamda statistik-tahliliy ko'rinishdagi ma'lumotlar yoritib borildi.

Bu borada barcha tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan har oyda OAV da chiqishlar belgilangan bo'lib, yil yakuni bo'yicha Jizzax shahar, Arnasoy va Mirzacho'l tumanlarida chiqishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan profilaktika ishlari yuzasidan 7 431 ta tushuntirish ishlari olib borilgan, 333 marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etish, 7 377 ta buklet va qo'llanmalar tarqatish orqali tadbirdorlik sub'ektlari o'rtasida profilaktika ishlari tashkil etildi. Natijada, profilaktika tadbirdori orqali jami 3 626 ta holatda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato-kamchiliklarning oldi olindi va bartaraf etildi.

Hisobot intizomini buzgan mansabdar shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan choralar ko'rib borish bo'yicha G'allaorol, Zomin tuman statistika bo'limlari sustkashliklarga yo'l qo'yanligini ta'kidlab o'tdi.

Yig‘ilishda davlat statistika organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, statistik axborotlar sifati va mazmunini kengaytirish, taqdim etilayotgan statistik nashrlarni takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etilib, bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish, statistik axborotlarning ochiqligini ta’minlash, sifati va mazmunini yanada takomillashtirish yuzasidan vazifalar belgilandi.